

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

application of knowledge in the digital economy.....	360
<b>Z.F.Kasimova</b>	
Beshik to'yi marosimi folklorining o'rganilishiga doir.....	366
<b>M.Y.Mamadjonov, F.A.Bekmuxamedova</b>	
“Mehmon” so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy hamda salbiy ma'noda qo'llanilishi .....	369
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari.....	373
<b>S.J.Saidmuradova, X.Xolmurodova</b>	
Milliy xarakter va badiiy psixologizm.....	378
<b>G.I.Yuldasheva</b>	
Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari.....	383
<b>M.M.Кахарова, З.М.Дадахонова</b>	
Цели и принципы контроля в образовательном процессе .....	389
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Gender yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va istiqbollari .....	393
<b>T.Akhmedova</b>	
The impact of games on the development of pre-school children.....	398
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	402
<b>J.Q.Mirzajonov</b>	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va pedagogik imkoniyatlari.....	406



UO'K: 398.22(575.1)

**BESHIK TO'YI MAROSIMI FOLKLORINING O'RGANILISHIGA DOIR**

**ПО ИЗУЧЕНИЮ УЗБЕКСКОГО ФОЛЬКЛОРНОГО ОБРЯДА  
"БЕШИК ТҮЙИ"**

**STUDY THE FOLKLORE OF THE CRADLE WEDDING CEREMONY**

**Kasimova Zuxraxan Fatxiddinovna**  
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Bu maqola, insonning hayotning ibtidoiy fazalaridan biri bo'lgan "beshikka bog'lash" va uning mifologik va madaniy ma'no-ma'lumotlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekiston, Belarus, Rusiya, Ozorbayjon, Turkiya, va Ingliziston kabi davlatlarning erkak bolalarining tug'ilishi bilan bog'liq mifologik tasavvurlari, marosimlari, va adatlarini ta'riflashda qo'llanilgan. Ayni vaqtda, insonning tug'ilishi va o'limi bilan bog'liq madaniy marosimlar va insonlararo munosabatlar ko'rsatilgan.*

**Abstract**

*This article is devoted to the study of one of the primitive phases of human life, 'cradling' and its mythological and cultural meanings. In the article, the mythological ideas, ceremonies and customs related to the birth of male children of countries such as Uzbekistan, Belarus, Russia, Azerbaijan, Turkey, and England are used to describe. At the same time, cultural rituals and interpersonal relations related to human birth and death are shown.*

**Аннотация**

*Данная статья посвящена изучению одного из начальных этапов жизни человека «колыбели» и его мифологического и культурного подтекста. В статье для описания используются мифологические представления, обряды и обычаи, связанные с рождением детей мужского пола в таких странах, как Узбекистан, Белоруссия, Россия, Азербайджан, Турция и Англия. При этом показаны культурные обряды и человеческие взаимоотношения, связанные с рождением и кончиной человека.*

**Kalit so'zlar:** beshikka bog'lash, mifologiya, marosimlar, madaniylik, onalar bayrami, tug'ilish va o'lim marosimlari, xalq qarashlari, O'zbekiston folklori, belarus folklori, turkiy xalqlari.

**Ключевые слова:** колыбель, мифология, обряды, культура, День матери, обряды рождения и смерти, народные представления, фольклор Узбекистана, фольклор Беларуси, тюркские народы.

**Key words:** cradling, mythology, rituals, culture, Mother's Day, birth and death rituals, folk views, folklore of Uzbekistan, folklore of Belarus, Turkic peoples.

**KIRISH**

Beshik har bir insonning dunyoga kelganidan o'z bag'rida asrab-avaylagan muqaddas tushuncha. U hayot ibtidosi, dunyoning ramziy ko'rinishidir. Hassos folklorshunos M.Jo'rayev beshik haqida yozar ekan: "Ma'lumki, insonni vatani avvalo beshikdan boshlanadi. Jigar go'shasiga qalb qo'rini baxsh etib beshik tebratayotgan ona allasi orqali murg'ak bola ilk bor ona va vatan mehrini tuyadi",-degan edi. Darhaqiqat, insonning ilk vatani uning beshigi, Vatanning onaga mengzanishi ham bevosita beshik va onaning mehriga aloqadordir. Inson hayotining ilk pallarida beshikka intiladi, negaki, u beshikda orom oladi, halovat topadi. Keyinchalik bir makonni o'ziga yaqin tutish va o'sha yerga mehr berish ko'nikmasi shakllangan. Shu tariqa Vatan tushunchasi paydo bo'lgan. Vatan va ona ayni shu inson hayotining ilk pallalari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham sakral mohiyat kasb eta boshlagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbek xalqida bolani beshikka bog'lash bilan bog'liq qator urf-odatlar va marosim ayimlari mavjud. Bolani beshikka bog'lash, uni cho'miltirish, ilk bor sochini olish, tirnog'ini olish kabi udumlarimiz qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari qobig'ida maydonga kelgan. Shu o'rinda bir masalaga alohida to'xtalib o'tishni joiz topdik. Insonning tug'ilishi va vafot etishi bilan bog'lik marosimlar hamda udumlarni hech ikkilanmasdan mifologik tasavvurlarga aloqador

## ILMIY AXBOROT

deyishimiz lozim. Chunki, tug'ilish va o'lim biz yashab turgan dunyo va o'zga dunyolar orasida sodir bo'ladigan hodisadir. Tug'ilishda bola boshqa olamda ilohiy ne'mat sifatida paydo bo'lib, bu dunyoga keladi. Ammo vaqti soati yetib inson bu dunyoni tark etarkan, G'ayb olamiga o'tadi. Inson hayotida olamlar uzra makon almashish vaqti bo'lganligi uchun tug'ilish va dafn marosimlari muqaddas mohiyat kasb etadi.

Belarus to'y marosimlarini o'rgangan N.M.Nikolskiy to'y marosimlarida yangi onaning atrofida tashkil etiladigan ko'pgina marosimlar mohiyatida qadimiy e'tiqodlar, xususan, totemistik tasavvur turishini aytgan edi. Rus madaniyatshunosligida tadqiqot olib borgan YE.A.Belausova o'zining nomzodlik dissertatsiya ishida bola tug'ilishi bilan bog'liq xalq qarashlarini o'rganar ekan, ruslarda ham qadimda bola tug'ilishini turli ilohlar bilan bog'lash va turli magik marosimlar o'tkazishganligini qayd etadi. Turkiy xalqlarda bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar bir qadar bir-biriga yaqin turadi. Masalan, Ozorbayjonlarda bola tug'ilgach, chaqaloqning ona buvisi uni tuzli suvga cho'miltirar ekan. Biroq, go'dakni qirqi chiqquncha hech kimga ko'rsatmas ekan. Bolaning soch va tirnoqlarini ham bir yoshga to'lmaguncha olmas ekan. Ozorbayjonda istiqomat qiladigan lizgenlar kupen lishan – beshikka solish marosimi o'tkazgan. Qizig'i shundaki, lizgenlar beshik marosimida ham ona tomondan yoshi ulug' ayol go'dakni beshikka bog'lashni amalga oshirgan va turli aytimlar aytib yangi onaga ramziy onaligni topshirgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Qadimgi inglizlarda "Ona kechasi" nomli bayram nishonlangan. Ingliz tarixchisi Beda Dostopochtenni tomonidan bu haqda ma'lumot qoldirilgan. Dinshunos olimning yozishicha, ona kechasi rojdestvo arafasida o'tkazilgan. Ko'pchilik inglizlar 20 dekabr kuni onalar kechasini nishonlashadilar. Bu marosimda Dis – onalar homiysi ajdod ruh sharafiga va boshqa ayollar pirlariga jumladan, Frigg–onalar homiysiga sig'inishib, quyidagi aytimlarni ijro qilgan:

Senga shon-sharaf, Frigga, Asgard malikasi, aslarning buyuk onasi, bulutlarning egasi, buyuk ko'ruvchi, uy va o'choqning qudratli himoyachisi! Iltimos, bu Yule uchun uyimga baraka ber va uni sevgi, tinchlik va iliqlik bilan to'ldir!

Senga shon-sharaf, Friggingning cho'rilar, qudratli ma'budalar! Kelgusi yilda menga mehribon bo'ling!

Senga shon-sharaf, Eyr, buyuk tabib Frigg! Uyimga sog'lik bilan baraka ber va har qanday baloqazodan saqlanishimizga yordam ber!

Senga shon-sharaf, Saga, o'tmishni biladigan dono ma'buda! Izingdan yuraman va yo'l ko'rsatuvchilarimni unutmayman!

Fulla senga shon-sharaflar bo'lsin, Frigg boyligini saqlovchi! Uyimga baraka ber!

Gna, senga shon-sharaflar bo'lsin, sodiq xabarchi! Nutqning ravshanligi bilan uyimga baraka ber!

Lovn, senga shon-sharaflar bo'lsin, taqiqlangan sevgi bekasi! Uyimga rahm-shafqat bilan baraka ber!

Rahmat, Xiong eshiklar qo'riqchisi! Uyimni ko'rinadigan va ko'rinmas dushmanlardan himoya qil!

Qasamlarning guvohi – Var, senga shon-sharaflar bo'lsin! Mening uyimda yashovchi har bir kishi o'z majburiyatlarini eslasin!- deb olqishlar aytilarkan. Ona kechasida yangi tug'ilgan go'dakli ayollarni alla aytishga o'rgatishgan:

Lullaby, and good night, in the skies stars are bright  
May the moon, silvery beams, bring you with dreams close you eyes,  
now and rest, may these hours be blessed till the sky's bright with dawn,  
when you wake with a yawn!

Xayrli tun tilab alla aytaman,  
Samoda nur sochar yulduzlar,  
Kumush oy nuridan tin olib  
Ko'zingni yumib orom olgin  
Xudoyim bu onlarni yorlaqagin  
Osmonni tong nurlari yoritib,  
Esnagancha uyg'ongin.(Tarjima bizniki)

### XULOSA

Ko'rinadiki, bolani beshikka bog'lash dunyoning deyarli barcha halqlarida muayyan mushtaraklik kasb etadi. Buning sababi odamzod ibtidosining Odamato va Momohavoga borib taqalishi bilan aloqador deb o'ylaymiz. Odam farzandlari uchun oilaga yangi mehmonning kelishi, oilaning bir kishiga ko'payishi bayram sanalgan. Inglizlar onalar bayramini ham shu ma'noda nishonlaganlar. Bizning o'zbeklarda ham farzandli bo'lish haqiqiy ma'noda xursanchilik sanalgan. Bizning onalarimiz ham onalar piri, ayollar mifologik homiylari: Umay ona, Anbar ona kabilarning sharafiga olqish aytadilar. Bolaning tug'ilishida ishtirok etgan doylar yuqorida nomlari zikr etilgan ayollar homiylaridan madad so'rashgan. Halq qarashlariga ko'ra, ko'zi yoriydigan ayolga Umay va Anbar ona ruhlari madad beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ой олдида бир юлдуз: Ўзбек халқ маросим қўшиқлари/Тўплаб нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи М.Жўраев. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
2. Николский Н.М. Происхождение и история Беларускай свадебной обрядности. – Минск: Изд. Академ наук БССР, 1956.
3. Белоусова Е.А. Представления и верования, связанные с рождением ребенка: современная городская культура. Автореф.дисс. канд. Культурологии. – Москва 1999.
4. Азербайджан-Родильные обряды/<https://vk.com/>  
Аббасова М. О. Семейные обряды лезгин Азербайджана, конец XIX - XX вв. Автореф. дисс. канд. истор. наук. – Боку, 1989.
5. Beda. Historia Ecclesiastica gentis Anglorum / Ed. J. Stevenson. Lnd., 1838.